

O‘ZBEK ADABIYOTIDA KULGINING O‘RNI

Latofat Ismatovna TASHMUKHAMEDOVA

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent, professor v.b.

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

THE ROLE OF LAUGHTER IN UZBEK LITERATURE

Latofat Ismatovna TASHMUKHAMEDOVA

Candidate of Philological Sciences, Acting Professor

Journalism and Mass Communications University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

РОЛЬ СМЕХА В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Латофат Исмаиловна ТАШМУХАМЕДОВА

Кандидат филологических наук, доцент, и.о. профессора

Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана

Ташкент, Узбекистан Latofat979@mail.ru

UDC (UO·K, УДК): 821.512.133:8-7

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Tashmukhamedova L.I. O‘zbek adabiyotida kulgining o‘rni.// O‘zbekistonda xorijiy tillar. — 2024. — 10-jild. — № 1 (54). — B. 175-205.

[https://doi.org/ 10.36078/1710315890](https://doi.org/10.36078/1710315890)

Received: January 17, 2024

Accepted: February 17, 2024

Published: February 20, 2024

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Annotatsiya. Maqolada hazil, yumor va satiraning jamiyat ijtimoiy hayotidagi ahamiyati, kulgining estetik vazifasi va shaxsni tarbiyalashdagi roli Abdulla Qodiriyning hajviy asarlari misolida tahlil qilingan. Qodiriyning zamondoshlari va hozirgi davr adabiyotshunoslarning satira hamda yumor haqidagi ilmiy-nazariy mulohazalari, o‘zbek hajvchiligidan chuqur ildizlari, taraqqiyot bosqichlari izohlangan. Hajvga tortilayotgan voqea-hodisalar real hayotdan olingan bo‘lib, ijtimoiy ahamiyatga egaligi va uning hajviyotdagi o‘rni, ta’sir kuchi, jamiyatdagi kamchiliklarni fosh etishda bajaradigan vazifalari o‘rganilgan. O‘zbek adabiyotida kulgi va hajv asosida yaratilgan dastlabki asarlarni A. Qodiriyning ijodida uchratish mumkin, shuning uchun maqolaning obyekti sifatida adibning “Mehrobdan chayon”, “Kalvak mahzumning xotira daftaridan”, “Toshpo‘lat tajang nima deydi?” asarlari tanlangan. Yozuvchi hajviy asarlarida hayotdagi, odamlar tabiatidagi muayyan salbiy holatlarni sof mafkuraviy nuqtai nazardan beryoqlama qoralash, fosh etish yo‘lidan bormay, xarakter va hodisalar tasviriga xolisona yondashib, murakkabligi, ziddiyatlari bilan ko‘rsatishga jazm etadi. “Mehrobdan chayon” romanidagi “Qiziqqlar” bobida xalqona-bayramona kulgi Yevropa adabiyotidagi karnaval manzarasiga o‘xshab ketishi, jamiyatda uchraydigan nuqsonlarni aynan qiziqqlar tomonidan hukmdorga kulgi orqali yetkazilishi asardan keltirilgan parchalar asosida muhokama qilingan. “Mushtum” jurnalining mazmun-mundariyasi, faqat hajviy maqolalar uchun mo‘ljallangani ilmiy izohlanib, aynan shu muammo tufayli G‘ozi Yunusov bilan munozara olib borani, ya’ni jurnal keyingi yillarda siyosiy-mafkuraviy fikr minbariga aylangani hamda jurnalning xarakteriga zid ravishda chop etilayotgan biri-biridan jiddiy maqolalarda na badiiylik, na hajviylik belgilari mavjud emasligini Abdulla Qodiriy umuman qo‘llamasligi faktlar asosida dalillangan. Tadqiqot jarayonida germevtik tahlil usulidan foydalanilgan. Maqolaning maqsadi

kulgining hajviyotdagi o'rnini izohlashdan iborat.

Kalit soʻzlar: kulgi; hajviya; obraz; yumor; satira; ta'sir; hissiyot; mubolag'a.

Abstract. The article analyzes the importance of humor and satire in social life, the aesthetic function of satire, and the role of satire in the moral development of individuals, using the humorous works of Abdulla Qodiriy as an example. Qodiriy's contemporaries and the modern literary critics' theoretical observations on satire and humor, the deep roots of Uzbek humor, and its stages of development are explained. The events and incidents depicted in humor are taken from real life, revealing their social significance, the role they play in humor, their impact, and their task of exposing shortcomings in society. The early works created based on satire and humor in Uzbek literature can be attributed to A. Qodiriy's creativity, so the works "Scorpion from the Altar", "From the memoirs of Kalvak Makhzum", "What does Toshpulat Tajang say?" were selected as the objects of the article. In his comedic works, the writer does not follow the path of one-sided condemnation and exposure of certain negative phenomena in life and human nature from a purely ideological point of view. In the chapter "Buffoons" in the novel «Scorpion from the Altar», the public and festive humor is akin to the carnival scene in European literature, and the discussion is based on excerpts from the work, where the shortcomings in society are directly addressed to the authorities through the humors of the very characters. The article explains that initially the content of the magazine "Mushtum" was intended only for humorous articles, however, a discussion took place on this issue with Gozi Yunusov, and "Mushtum" in subsequent years became a platform for expressing political and ideological opinions contrary to the nature of the magazine. Based on the facts, it is proved that Abdullah Kadiri did not support the lack of skill and humor in the magazine. The hermeneutic analysis method was used in the research process.

Keywords: laughter; comedy; image; humor; satire; influence; emotion; exaggeration.

Аннотация. В статье на примере юмористических произведений Абдуллы Кадыри анализируется значение юмора, пародии и сатиры в социальной жизни общества, эстетическая функция и роль смеха в воспитании личности. Изложены научно-теоретические взгляды современников Кадыри и современных писателей на сатиру и юмор, рассматриваются корни узбекской комедии, этапы ее развития. Высмеиваемые события взяты из реальной жизни, изучены их социальная значимость и роль в сатире, их влияние и роль в обличении пороков общества. Первые произведения, созданные на основе смеха и юмора, в узбекской литературе можно встретить в творчестве А. Кадыри, поэтому объектом статьи являются его «Скорпион из алтаря», «Из воспоминаний Калвака Махзума», «Что говорит Тошпулат Таджанг?». В своих комических произведениях писатель не идет по пути одностороннего осуждения и разоблачения тех или иных негативных явлений в жизни и природе людей с чисто идеологической точки зрения. На основе главы «Шуты» (название в русском переводе. — *Ред.*) романа «Скорпион из алтаря» автор статьи делает вывод, что народно-праздничный смех сходен с карнавализацией в европейской литературе, что именно шутки, розыгрыши и смех сообщают правителю о недостатках общества. В статье на основе фактов объяснено, что изначально содержание журнала «Муштум»

предназначалось только для шуточных статей, однако состоялась дискуссия по этому поводу с Гоzi Юнусовым, и «Муштум» в последующие годы стал трибуной для выражения политико-идеологических мнений вопреки характеру журнала. На основе фактов доказано, что Абдулла Кадыри не поддерживал отсутствие мастерства и юмора в журнале. В процессе исследования использовался метод герменевтического анализа. Цель статьи – объяснить место смеха в юморе.

Ключевые слова: смех; комикс; образ; юмор; сатира; влияние; эмоция; преувеличение.

Kirish

Qadimgi zamonlardan, ya'ni Aristoteldan boshlab hajviyotning mohiyati va mavzusini yorituvchi ko'plab ilmiy adabiyotlar yaratilgan. XX asr boshlarida yangi yo'nalishdagi o'zbek adabiyoti vujudga kelayotgan bir davrda ham bu sohada ko'plab izlanishlar olib borildi. Bu izlanishlar orasida badiiy adabiyotning muhim turlaridan biri bo'lgan satira va undagi kulgining mohiyati, janrlari, hamda ahamiyatini aniqlash yo'lida ko'pdan-ko'p qarashlar ilgari surildi, estetik tafakkurni boyituvchi qator asarlar e'lon qilindi. Ularda birinchi navbatda kulgining hayotdagi va adabiyotdagi o'rnini, qiymatini aniqlashga intilish yaqqol sezilib turar edi. Xususan, XX asr boshidagi ilk tanqidiy asarlarda kulgining estetik vazifasi va shaxsni tarbiyalashdagi roli yuzasidan ko'plab mulohazalar o'rta tashlandi. Ularga ko'ra, kulgining tub mohiyatini tushuntirishning qiyin tomoni shundaki, birinchidan, kulgi xuddi olmos kabi ko'p qirralidir (dunyodagi hamma narsani "jiddiy" va "kulgili" tushunish mumkin). Ikkinchidan, kulgi favqulodda jo'shqindir, u turli qiyofalarga kira oladi.

Komik obrazning hamma unsurlari hayotdan, real narsadan (shaxsdan) olinishi, lekin ularning mutanosibligi, o'rni, ta'sir doirasi ijodiy fantaziya (xayolot) bilan qayta yaratilishi, kulgili narsa aniq hissiy tuyg'u uyg'otadigan predmetga asoslanishi, kulgi esa unsurlarni bo'rttirish, mubolag'a, donolik, bir-biridan uzoq tushunchalarni qiyoslashdan tug'ilishi nazariy fikrlar bilan izohlangan. Ana shu murakkab jarayonda kishilar xarakterining nozik qirralari ochilib boradi.

Kulgi dunyo, inson va tarix haqiqatini aytishning bir shaklidir. Hayotning shunday jihatlari borki, ular faqat kulgi orqaligina yoritilishi mumkin. Shuning uchun ham kulgi adabiyotning ajralmas qismi hisoblanadi. Jamiyat taraqqiy etgani sari kulgi ham kamolotga erishadi, kishilar hayotida muhim rol o'ynay boshlaydi.

Jamiyatda kulgili va fojiali holatlar hamisha yonma-yon yurgan. Inson kula oluvchi va kulgiga sabab bo'luvchi yagona mavjudotdir. U yolg'iz qolganda yig'lashi mumkin, lekin faqat kishilar orasidagina kuladi. "Kulgilik daholari" bir-biridan ajralmas ikki hodisa-kulgi va yig'ini omuxta holda qo'llay oldilar. Shu mahorati tufayli Qodiriy o'z vaqtida "kuldirib yig'latuvchi, yig'latib kuldiruvchi" ta'rifini olgan edi. U yigirmanchi yillarning talato'plarini, totalitar tuzumning fojialarini, jamiyatning tanazzul tomon borayotganligini "ko'z yoshlari orasidagi kulgi" orqali bor bo'y-basti bilan ko'rsata oldi. Abdulla Qodiriy ta'kidlashicha, Uyg'onish davri adabiyoti "Kulgi daholari"ning kulgidan keng foydalanishining yana bir sababi "Hajviy kulgi" (satira ma'nosi bilan) ommaviy deyilsa bo'ladi. Chunki kulgi tanqid turmush bo'lib

uchquvchi burgutdir. Hayot sharoitiga yaramagan zaif, qizg'anch, manfur, muzir va shuning singari unsurlar unga yemdir.

“Hajviy tanqid avomning ruhiga yaqin va u his etgan, ammo ifoda qila olmagan masalalariga tarjimondir. Xulosa, hajviy tanqidning tabiatidagi kulgilik unsuri avomning mahbubi, tag'in to'g'risi uning o'z ijodidir” (11,184). Darhaqiqat, kulgi xalq ijodidir. Xalq kulgi orqali (askiyalar, latifalar, qiziqlar va masxarabozlar kulgisi orqali) o'z orzu-armonlarini, ko'nglida yig'ilib yotgan dard-alamlarini, noroziliklarini ifodalagan. Demak, kulgi hokimiyat va xonlar oldidagi qo'rquvni yenga olgan. Shularni hisobga olgan holda, mazkur ishda qiyosiy tahlil va analitik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Asosiy qism

XX asr boshlarida kulgining mohiyati haqida fikr yuritgan yozuvchilardan Qodiriy kulgi tarixiga nazar tashlar ekan quyidagilarni yozadi: Kulgilikning boshlanish tarixi juda eskidir. Kulgilik insonlar bilan birga tug'ilgan, uning boshqa xususiyatlari, ya'ni kamolot va ruhiy holatlari ila yondoshdir. Shuningdek, biz o'zbeklarning kulgiligimiz ham o'z tarixini eskidan boshlaydi. Har bir narsaning tug'ilish tarixiga nazar tashlab ko'riladirkim, ul ibtidoiy davrda, albatta, bir ehtiyoj orqalik dunyoga keladi” (11, 181).

Qodiriy ta'kidlashicha, ayni shu ehtiyojning kelib chiqish sabablari bor edi. Kulgi yaratganning odamlarga ato etgan ulug' inoyatlaridan biridir, u insondagi aql va ruh bilan chambarchas bog'liqdir va ayni shu jihatlari bilan inson boshqa mavjudotlardan farqlanib turadi. Aristotelning fikricha, chaqaloq faqat tug'ilganining qirqinchi kunidan kula boshlar va shu daqiqalardan boshlab, u shaxsga aylanish davriga qadam tashlar ekan. Demak, kulgi nafaqat bizni o'rab turgan borliq va jamiyatni anglashning o'ziga xos usuli, balki o'zlikni anglashning ham bir yo'lidir. Abdulla Qodiriy e'tirof etishicha, kulgi g'oyat qudratli kuch, u inson ruhiga yengillik beradi, turmush tashvishlarini vaqtincha bo'lsa-da unuttiradi. Balki shuning uchun ham kulgi juda qadimda, insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichlaridayoq paydo bo'lgandir. Eng qadimgi madaniyat bo'lgan hind vedalarida ham hajviy sahnalar mavjudligi fikrimizning isbotidir.

Qodiriy kulgining kelib chiqishi haqida fikr yuritar ekan, g'oyat muhim nazariy mulohazani o'rta tashlaydi “Bir millatning har bir sohada tutgan mavqeyi madaniyatidagi darajasiga, saviyasiga qarab hukm qilinsa ham, ammo hajviyotdagi darajasi bunga qaramaydi. Millatning kulgilik dahosi aksar o'sha qavmning intiboh (uyg'onish) tarixining qaldirg'ochi bo'lib ko'rinadi. Masalan, Italiyada Dante, Ispaniyada Servantes, Rossiyada Gogol. Chunki daholarni yetishtiruvchi bosh omil buzuq sharoitdir” (11, 184). Kulgining g'oyat qudratli kuch ekanligini his qilgan Dante, Servantes, Gogol, Qodiriylar adabiyotda undan samarali foydalandilar. Chunki azob-uqubat, iztirob ruhni ko'proq tozalaydi. Yozuvchi X. Do'stmuhammad aytganidek (8, 121), buyuk ijodkorlarni jahoniy alam yetishtiradi. Zero, yaramaslik va qabihlikdan ezgulik unib chiqadi, sog'lom tafakkur o'sishi uchun illatlar o'g'it vazifasini o'taydi. Ijodkor bilan muayyan voqelik o'rtasida psixologik nomuvofiqlik bo'lgandagina yetuk asar vujudga keladi.

Xalqona ohanglarda yaratilgan Uygʻonish davri adabiyotida xalq kulgisi shuning uchun ham asosiy oʻrinni egalladi. Jahon adabiyotiga xalq kulgisini Rable olib kirgan boʻlsa, XX asr yangi oʻzbek adabiyotida bunday vazifani Qodiriy ado etdi. Qodiriy yaratgan asarlarda xalqona kulgining koʻplab jilolarini uchratish mumkin. Shu yerda “Mehrobdan chayon” romanidagi “Qiziqqlar” bobini yuqoridagi fikrlarga tayangan holda tahlil qilsak. Qodiriy asarlarini sinfiy nuqtai nazardan tahlil qilgan Oybek ham bu bob haqida iliq fikrlar bildirgan “Mehrobdan chayon”da “Xon koʻngil ochmoqchi” degan bobda xalq qiziqchilari-artistlar tomonidan oʻynalaturgan qiziqchilik, taqlidchilik kartinalarini juda sanʼatkorona tasvirlaydi” (11, 8).

“Qiziqqlar” bobida xalqona-bayramona kulgi hukmron. Bunday kulgi sharqda xalq sayllarida namoyon boʻlgan boʻlsa, gʻarbda karnavallarda oʻz qudratini namoyish etgan.

“Qiziqqlar” Yevropa adabiyotidagi karnaval manzarasiga oʻxshab ketadi. U yerda ham, romandagi xalq saylida ham xalq kulgi, hazil-mutoyiba orqali koʻngil ochishga yigʻilgan. Xalq saylida ham, karnavalda ham ijrochilar va tomoshabinlar yoʻq, oliy tabaqa ham oddiy xalq ham ishtirokchidir. Bu yerda faqat bayramona kulgi hukmron. Bu xalqona kulgi har narsaga va har kimga qaratilgan, shu jumladan, sayl ishtirokchilarining oʻziga ham. Romanda ulugʻ xonning oʻzi ham qiziqqlarning haziliga, payrovlariga nishon boʻladi, nafaqat nishon boʻladi, balki oʻzi ham qiziqqlarning “suhbatida” qatnashadi. Shayxulislomday obroʻli shaxsga ham taqlid qilinib, hajv orqali tanqid ostiga olinadi. Lekin shunday jasorat koʻrsatgan qiziqqlar bayramona kulgi himoyasida. Va aynan shu bayramona ruh yaxshigina tanqid qilingan shayxulislomni, xonni qiziqqlarni olqishlashga, sanʼatlarini tan olishga majbur etadi. Bu bayramona kulgi ham quvnoq, ham zaharxanda, ham sodda, ham dono, bir vaqtning oʻzida ham tasdiqlaydi, ham rad etadi. Mana shunday yigʻinlarda xalq oʻz dardini, jamiyat illatlarini kulgi orqali aytish, koʻrsatish qiziqqlarning va masxarabozlarning zimmasiga yuklatilgan.

Qiziqqlar haqida Choʻlpon quyidagilarni yozgan edi: “Podshohlar, sultonlar, xonlar, beklarning qamchilaridan qon tomgan zamonlarda xalq koʻpchiligi oʻz dardini bir yulgʻun bachkisiga ham ayta olmagan davlarda xalqning ogʻir ahvolini bironta saroy yoki xalq qizigʻi chiqib, hazil yoʻli bilan yedirib yuborardi. Katta-katta izdihomlarda, yillik sayllarda qiziqqlar necha minglarcha xalqning juda zoʻr maroq bilan oʻzlariga tikilib turganlarini koʻrgandan keyin, jamiyatning fayzi bilan dadillanib, mamlakatning kattalarini, beklar, hokimlar, qozilar, raislar, muhrdorlar va hatto xonlarning oʻzini tanqid qilib tashlar edilar”. Xuddi shunday holat qiziqqlar bobida ham roʻy beradi. Qiziqqlar qoʻrqmay xonning zolimligidan, bir ogʻiz soʻz uchun dorga osilishlari mumkinligidan, shayxulislomday zotning mahalliychiligi-yu” ikkiyuzlamachiligidan soʻz ochadilar. Sayl davomida ularning quroli boʻlgan xalqona-bayramona kulgi ayni daqiqalarda xonlar, yuqori tabaqa, amaldorlar oldidagi qoʻrquvning ustidan gʻalaba qozonyapti. Professor U. Normatov shu bob haqida quyidagilarni yozadi: “Xalq turmushiga oid oliy haqiqat shuki, kulgi oldida shohu-gado barobar, hazil yoʻli bilan aytilsa oddiy faqir haqir odamning har qanday oʻtkir tanqidiy gapi ham shohga malol kelmaydi” (7, 116).

“Yig‘indi gaplar” maqolasida hukumat rahbarlariga hazil tariqasida bir qator kamchiliklarni aytgani uchun 2 yilga ozodlikdan mahrum qilingan adibning romanida qiziqqlarning san‘ati, Qodiriy orzu qilganidek, to‘g‘ri tushuniladi, yuksak baho beriladi, tanqidga duchor bo‘lganlarning o‘zlari ham qiziqqlarni olqishlaydilar. Kulgining beqiyos qudrati shu sahnada yaqqol namoyon bo‘ladi.

Demak, Qodiriy kulgisi xalq kulgisi bilan chambarchas bog‘liq ekan, shu o‘rinda adabiyotshunos M. M. Baxtinning xalq kulgisiga doir fikrlarini keltirish juda o‘rinli bo‘ladi. M. M. Baxtin xalq kulgisini quyidagi shakllarga bo‘ladi:

1. Marosim va tomoshaga oid shakllar (xalq bayramlari, masxarabozlik o‘yinlari va h.k.)

2. Og‘zaki va yozma shakllardagi turli-tuman kulgi asarlari (shu jumladan parodiyalar)

3. Ochiq va chapanicha nutqning har xil shakllari va janrlari (haqorat, qasam, ont ichish) (2, 9)

Garchi turlicha nomlansa-da, bu uch shakl borliqning kulgiga xos yagona mohiyatini ifodalaydi. Ayni chog‘da ular o‘zaro mustahkam aloqada va ko‘p jihatdan bir-birini taqozo etadi" (11, 184). Qodiriy asarlarida xalq kulgisining mana shu barcha tovlanishlarini uchratish mumkin. Yuqoridagi “Qiziqqlar” sahnasida marosim va tomoshaga oid shakllar va parodiyalarga duch kelsak, Toshpo‘lat tajang, Ovsarning nutqlarida (umuman, ko‘plab fel‘etonlarida ham) ochiq va chapanicha kulgining bir qancha shakllarini uchratish mumkin.

Yetuk hajvchi yozuvchi voqea-hodisalarni o‘zining haqiqiy ko‘rinishida ko‘radi, ularning xarakterli nuqtalarini kulgi orqali xolis tasvirlaydi. Xuddi hayotdagi kabi hajvda ham kulgining turlari, o‘ziga xos tomonlari xilma-xil. Hajvda komik hol turli ko‘rinishlarda ya‘ni piching, kinoya, istehzo kulgisi, zaharxanda, masxara kulgisi, nafratlantiruvchi va g‘azabli kulgi ko‘rinishida yuzaga chiqadi. Qodiriy bu vositalardan tashqari hazil, mubolag‘a, tasvir, tashbeh, tamsil, isteora, saj‘ kabilarni sanaydi va “mana shu yordamchi vositalar orqali shunday kulgi hosil bo‘lsinki, hatto kulgiga qolgan raqib ham birgalashib kulishga majbur bo‘lsin”, — deya yozadi (11, 184). Bu imkoniyatlardan qay darajada foydalanish, kulgi tovlanishlarining qay xilini qo‘llash yozuvchining dunyoqarashi, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi, layoqati va ijodiy mahoratidan kelib chiqadi.

Qodiriy asarlarida yengil hazildan tortib zaharxanda istehzo kulgisigacha uchraydi, ya‘ni u yuqorida o‘zi sanagan imkoniyatlardan unumli foydalangan. Masalan, O‘zbek oyim iliq mehr, yumshoq yumor bilan tasvirlangani holda, Solih maxdumning xasisligi zaxarxanda kulgisi orqali ifodalangan. Kalvak mahzumning bolalik, yoshlik yillari masxarali tasvirlangani holda, inqilobdan keyingi hayoti hazin yumorga yo‘g‘rilgan, sarguzashtlari nim tabassum bilan hikoya qilingan. Adib feletonlari va kichik asarlarida piching, kinoya, istehzo, zaharxanda, nafratlantiruvchi va g‘azabli kulgi vositasida betakror komik holat hosil qilish mumkinligini amalda isbotlagan.

Biz yaxshi bilamizki, hajviyot 3 asosiy katta turkumga bo‘linadi:

1. Hazil
2. Yumor
3. Satira

Bu uch unurning asosi bir bo'lsa-da, ular uch xil munosabatlarni ifodalaydi. Kinoyada kulgili holat jiddiylik niqobi ostida, salbiy munosabat ustunligida beriladi, yumorda jiddiylik kulgili niqobda ifodalanadi, satiraning fosh etuvchi kulgisi orqali esa salbiy illatlar qoralanadi. Abdulla Qodiriy "Kulgi haqida" maqolasida yozadi: "Ichki ma'naviy tomondan kulgilikda uch turlik unsur ham bor: birinchi-mutoyaba (sharj ma'nosida), ikkinchi-yumor (hajv), uchinchi- satira (ibrat)" (11, 184). Adib mutoyaba deganda hazil va kinoyani nazarda tutgan. Qodiriy kulgilik dast-lab paydo bo'lgan davrda hazil tariqasida yuzaga kelgan degan fikrni o'rta tashlaydi, buning sababi qilib madaniyati ibtidoiy xalqlarning kulgisi ham oddiy hazildan nariga o'ta olmasligini ko'rsatadi. Xalq askiyalari, latifalari va loflari, kishilar orasidagi qochirim va piching so'zlar hazilni yuzaga keltiradi. Hazil yengil kulgi bo'lgani holda, yumor ancha "jiddiy" kulgidir. Yozuvchi yumorni hajv deya tarjima qilar ekan, kulgi insonlar uchun aniq estetik qiymat (hodisa) ekanligini tushungan. Yumoristik asarda ijodkor narsa-hodisalarni haqiqiy holatida ko'radi, ularning xarakterli jihatlarini ko'rsatib beradi va aynan shu hodisa kulgi chaqiradi. Yumorning asosida kulgili munosabatlar yotadi. Qodiriy yumoristik kulgini yengil tanqid deya tushunadi. Lekin yumor ongning borliqqa, ayrim hodisalarga va butun dunyoga munosabati, tashqi kulgili holatning ichki jiddiy ma'nosini ochib beruvchi janrdir. Yumor kuldiruvchining o'ziga xos "alohida" ruhiy kayfiyati bilan bog'liq. Yumorning kulgili holat sifatidagi talqinidan tashqari, kulgi manbaiga chuqurroq va jiddiy munosabatda bo'lishga, uning tubidagi haqiqatni ochishga, kulgili holatga qaramay, kulgining chilparchin qiluvchi turlariga qarama-qarshidir. Yumor to'laligicha hayot hodisalarini hayotning o'zidek murakkab, bir yoqlamalikdan holi baholashga intiladi. Yumor arziyas narsalardan — ko'tarinkilik, nodonlikdan donolik, kulgidan g'amginlikni, "dunyoni kulgi orqali ko'rish zaminidagi ko'rinmas ko'z yoshlarni" payqashni (N. V. Gogol so'zlaricha) ochib beradi. Yumor tasvir obektini himoya qiladi, uning kulgisi zaminida hayajon, hatto ko'ngilchanlik yashirinadi, ya'ni yozuvchi qahramonga hamdarddir. Qodiriy yumori va yumoristik qahramonlari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. O'zbek oyim, uning chala-dumbul tabiati, Xatib domla va Muhsin domlaning xarakteridagi o'ziga xos jihatlar orqali adibning yumor va yumoristik qahramon haqidagi qarashlarini tasavvur qilish mumkin.

Satira va yumor, ularning chegarasi haqida olimlar ko'plab izlanishlar olib borganlar: Satira va yumor orasida xitoy devori yo'qligi ma'lum. Bugina emas, ba'zan hajviyot bilan yumorni ajratish qiyin bo'lib qoladi. Yumor qatnashmagan hajv bo'lmaganidek, hajviy ma'no kasb etmagan yumoristik asar ham bo'lmaydi.

Bizning nazarimizda, hajviy asarlar bilan yumoristik asarlar orasidagi farq avvalo inkor qilish usuliga, hajviy maqsad uchun qo'llanilgan yo'l va vositalarga bog'liq. Hajviy asarlarda bosh vosita ayovsiz, jiddiy fosh qilish bo'lsa, yumoristik asarlarda bosh vosita masxara qiluvchi achchiq xandadir (13, 143).

Hafiz Abdusamatov esa bu haqda quyidagilarni yozadi: "Yumorning satiradan farqi, u ma'lum sotsial hodisani butunlay barham berishga targ'ib qilmasdan, balki undagi nuqson va kamchiliklarni yo'qotishga undaydi" (1, 208).

Qodiriyning fikriga ko'ra, uchinchi unsur bo'lgan satira esa achchiq kulgiga asoslanadi. Bunday kulgi hech nimani va hech kimni ayamaydi, satirik asar asosida kuchli tanqid, achchiq haqiqat yotadi. Satirik qahramon yozuvchining o'qlariga nishon bo'ladi. Demak, yuqoridagi fikrlardan quyidagicha xulosa chiqarish mumkin: Hazil tabassumni, yumor kulgini, satira esa titratib yuborgudek achchiq qahqahani tug'diradi. Asar syujeti yechimga borgan sari bu kulgi kuchayib boradi. Satira tasvir obektining yaroqsizligini, tubanligini, puchligini qaqshatqich, oshkora yoki yashirin kulgili timsollar orqali fosh etadi. Satiraning estetik vazifasi tubanlik, nodonlik, buzuqlik, razolat tomonidan haqoratlangan ezgulik, haqiqat va go'zallikni uyg'otish va jonlantirishdan iborat. Satirada hajvchi obrazi yuksak darajada shartli bo'lib, hayotiy voqealar bo'rttirib, kuchaytirib, mubolag'ali tasvirlanadi va ayni shu narsa kuchli kulgini uyg'otadi. Qodiriyning hajvchilikka doir nazariy qarashlari bilan amaliy faoliyati uyg'unlikdadir, shuning uchun ham fikrimizga dalillarni uning asarlaridan keltirish mumkin. Kalvakning o'ta xunuk tashqi ko'rinishi, Solih mahdumning ortiq darajada xasisligi, Toshpo'latning o'ta omiligi... Qodiriy shunday satirik, yumoristik tiplar yaratdiki, ular o'zbek xalqi adabiyotining abadiy obrazlari bo'lib qoldi. Estetik bo'yoqdorligi va shaklan milliyli, hajviy yetukligi jihatdan Qodiriy merosi o'zbek adabiyotida ajralib turadi. Hazil ibtidoiy davrda vujudga kelgan bo'lsa, yumor, ayniqsa, satira rivojlangan jamiyatning mevasidir. Bu uch unsur boshqa-boshqa nomlar bilan nomlansa ham, ta'sir kuchi turlicha bo'lsa ham mohiyati birdir. Hazil, yumor va satira orqali inson kulgi deb nomlangan estetik hodisadan zavq oladi. Hajviy asar esa voqealarni aks ettirishda satira va yumor qonuniyatlari asosida ish ko'rishi, ijtimoiy kulgiga asoslanishi kerak.

Yuqoridagi estetik qarashlardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Kulgi insondagi aql va ruh bilan chambarchas bog'liqdir.

Kulgi nafaqat bizni o'rab turgan borliq va jamiyatni anglashning o'ziga xos usuli, balki o'zlikni anglashning ham bir yo'lidir. U g'oyat qudratli kuch, inson ruhiga yengillik beradi, turmush tashvishlarini vaqtincha bo'lsa-da unuttiradi, balki shuning uchun ham u juda qadimda, insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichlaridayoq paydo bo'lgandir.

Ijodkor bilan muayyan voqelik o'rtasida psixoloik nomuvofiqlik bo'lgandagina yetuk asar vujudga keladi. Ya'ni, daholarni yetishtiruvchi bosh omil buzuq sharoitdir. Chunki azob-uqubat, iztirob ruhni ko'proq tozalaydi.

Qodiriyning ta'kidlashicha, kulgidan Uyg'onish davri adabiyotida keng qo'llanilganligining yana bir sababi, kulgi – juda katta ijtimoiy-g'oyaviy ahamiyatga ega. Hajviy tanqid xalq ruhiga yaqindir, xalq uni tezroq va yaxshiroq qabul qiladi.

Xalqona-bayramona kulgining beqiyos qudrati shundaki, bu kulgi (sayl davomida) xonlar, yuqori tabaqa, amaldorlar oldidagi qo'rquvning ustidan g'alaba qozonadi. U nafaqat amaldorlarning oldidagi, balki ichki, ong ostidagi, qalbdagi qo'rquvni ham yengishga yordam beradi.

Hajviyotning 3 turi bo'lgan hazil, yumor va satira, turlicha nomlansa ham, obykti va maqsadi birdir, kishilar jamiyatida uchraydigan turli illatlar va ularni bartaraf etish. Faqat turli vositalar va yo'llar orqali kurashadi. Hazil ibtidoiy davrda, yumor, ayniqsa satira

rivojlangan jamiyatda vujudga kelgan. Ta'sir kuchi turlicha bo'lsa-da, mohiyati bir. Ya'ni hazil, yumor va satira orqali inson kulgi deb nomlangan estetik hodisadan zavq oladi.

XX asrning yigirmanchi yillarida hajviy asar qanday bo'lishi kerak, qanday mavzularni ko'tarib chiqishi lozim, hajviy asarda mavzu muhimmi, kulgi muhimmi kabi savollar adabiyotshunoslarning, ijodkorlarning diqqat markazida bo'ldi, hajviyotning adabiy-estetik prinsiplari yuzasidan bir qator fikrlar bildirildi. Xuddi shu yillari adabiyotshunoslikda zamonaviy adabiyotning nazariy muammolarini yoritishga bag'ishlangan Abdurahmon Sa'diyning "Amaliy va nazariy adabiyot darsi", Fitratning "Adabiyot qoidalari" nomli risolalari yaratildi. Lekin keng xalq ommasini, ayniqsa, adabiyotga endigina kirib kelayotgan yosh ijodkorlar tajribali, qalami o'tkir bir yo'l boshchiga muhtoj edi. Shu vazifani Qodiriy o'z zimmasiga oldi. Tajribadan ma'lumki, adabiyotdagi har bir yangi hodisaning nazariy asosini birinchi galda o'sha hodisa ijodkorlarining o'zlari yaratadilar. Lekin 20-yillar ijodkorlari uchun shu nazariy asosni yaratish oson kechmadi. Davr ziddiyatli, murakkab edi, odamlar orasidagi munosabat undan-da ziddiyatli, murakkab edi. Shunday sharoitda ijodkorlar orasida bahs-munozaralar bo'lishi tabiiy bir hol. Julqunboy va G'ozini Yunus orasidagi bahslar shular jumlasidandir.

1925-yil 7-avgustda "Qizil O'zbekiston" gazetasida Abdulla Qodiriyning "Mushtum" faoliyatini taftish qilgan "Mushtum" (tanqid) maqolasi bosilib chiqadi. Gazetaning 17-avgust sonida esa G'ozini Yunus "Tanqidmi, tosh otish?" degan javob maqolasi bilan chiqadi. Qodiriy gazetaning 25-avgust sonida unga javoban "Shallaqi" maqolasini yozadi. G'ozini Yunus 28-avgust sonida "Shallaqi kim?" maqolasi bilan chiqadi. Gazetaning 6-sentyabr sonida Qodiriyning "O'jar ko'r" deb nomlangan javob maqolasi nashr etiladi. Gazetaning 14-sentyabr sonida redaksiyaning bu munozara xususidagi fikri e'lon qilinib, G'ozini Yunusning bosh muharrirlik lavozimidan bo'shatilgani yoziladi. Bu munozaraga o'sha davrning o'zidayoq ilmiy jamoatchilik o'z fikrini bildirgan (Ilmiy jamoatchilikning fikri G'.Umurzoqovning "G'ozini Yunusning ijodiy yo'li" nomli nomzodlik dissertatsiyasida batafsil tahlil qilingani sababli unga yana to'xtalib o'tishni lozim ko'rmadik).

Nazariy jihatdan yaxshigina qurollangan adibni jurnalning saviyasi qoniqtirmas edi. "Mushtum" nashr etila boshlanganiga ikki yildan ko'proq vaqt o'tgan bo'lsa ham, u badiiylilikda hamon orqada edi: "Har bir kasb o'z hunarini ilgari yuborsa, bizning "Mushtum" orqaga qarab tislana-dir, jiddiylasha boradir". Adibning fikricha, "Mushtum" birinchi navbatda kulgi jurnali bo'lishi kerak edi. Qodiriy fikrini davom ettirib, quyidagilarni yozadi: "Ustiga qaraysiz: "Mushtum" - siyosiy-ijtimoiy, oyda ikki topqir chiqaturg'an rasmiy kulgi jurnali! Ichiga kirasiz, siyosatda na satira unsuri va na ijtimoiyotda yumor taomi! Biz "Mushtum"ning kulgi deb aytilishidan satira ma'nosini olamiz, ammo "Mushtum"chi kulgi deb atalib qolganiga o'zi ham hayron". Qodiriygagina xos bo'lgan kinoya, piching bilan to'la bu fikrlarda haqiqat bor edi. Darhaqiqat, jurnal keyingi yillarda siyosiy-mafkuraviy fikr minbariga aylanmoqda edi. Jurnal xarakteriga zid ravishda chop etilayotgan biri-biridan jiddiy maqolalarda na badiiylilik, na hajviylilik belgilari ko'rinardi. Qodiriy jurnalning ayni shu adabiy-mafkuraviy yo'lini qo'llamaydi. Adibning tanqidiga sabab bo'lgan yana bir masala

jurnalning mavzu doirasi masalasi edi. “Ikki yildirki mavzui bir: eshonimning tasbehlari nosqovoq, domla pochcham sallalari uzun cho‘zoq”. Shu munozaraga o‘z munosabatini bildirgan M. Qarshiboev Qodiriyning fikrlarini quyidagicha izohlaydi: “Bu bilan u “Mushtum”ning turmushga munosabat yo‘li bir xil – fosh etishdan iborat ekanini nazarda tutadi. Adibning fikricha, siyosiy va ijtimoiy mavzularda kulgi yaratolmagan “Mushtum” o‘zicha boshqa bir mavzuni tanlab olishga majbur bo‘ladi. Fosh etish sof adabiy nuqtai nazardan mavzu bo‘lolmasa ham, jurnal uchun bu mavzu bo‘lib qolgandi” (10, 21). G‘ofur Umurzoqov esa Qodiriyning e‘tirozlarini boshqacharoq izohlaydi. Uning fikricha, Qodiriydek e‘tiqodli, iymonli yozuvchini jurnaldagi domla-eshonlarni hadeb masxara qilinaverishi g‘azabga solgan bo‘lishi mumkin. Yuqoridagi ikki fikrda ham aslida jon bor, shu bilan birga Qodiriy bu yerda satirik jurnalning qonuniyatlarini nazarda tutgandek. U boshqa maqolalarida ham kulgi jurnali va hajviy obraz haqida fikr yuritib, ular satira va yumor qonuniyatlariga bo‘ysinishi shart deb bir necha bor ta’kidlagan. Din va diniy ulamolar haqida “Mushtum”da bir xil maqolalarning chop etilaverishi nafaqat Qodiriy, balki Abdulla Qahhor va G‘afur G‘ulomlarning ham g‘ashini keltirgan edi. Chunonchi, A. Qahhor ayni shu yillarda e‘lon qilingan “Kulgichilik bahslari” maqolasida bu haqda quyidagilarni yozgan: “Mavzu to‘g‘risida hali ham qadimgi odamlarmiz. Hali ham eshon, domla, duoxon, parixonlardan yuqoriga chiqa olmaymiz... Shakl va mavzuda ergashishimiz soyasida kulgi adabiyotimiz yangiliklardan mahrum bo‘lib qoldi” (9, 2).

G‘afur G‘ulom esa bunga javoban quyidagi fikrlarni bildirgan edi: “Shu choqqacha har kim qulay kelgan yo‘l bilan uchragan kishining ustidan kulib keldi. Bizda eng ko‘p boylar, eshonlar, mullalar ustidan kulindi. Qachon qaralsa, bitta eshonning yo bitta domlaning xususiy qiligi, sallasi, kallasi – bizga mavzu: axir bu o‘quvchilarni zeriktiradi” (4, 3).

G‘ozi Yunus esa Qodiriyning fikrini butunlay boshqacha tushungan. U “Tanqidmi, tosh otish” maqolasida “Qodiriy ikki yildirki mavzu bir” deydir. Bu da’voga isbot qani? Jurnal turmushning barcha jabhalarini qamrab olgan, deya raddiya bildiradi. Demak, G‘ozi Yunusning fikricha, kulgi jurnalida ham hajviy maqoladan ko‘ra, siyosiy va ijtimoiy mavzudagi masalalarni yoritish foydaliroqdir, maqola kulgi maqomini olishi shart emas. Mana shu yerda Qodiriy va G‘ozi Yunusning adabiy-estetik qarashlaridagi farq ko‘zga tashlanadi. Ikki adibning munozarasini kuzatar ekanmiz, qarashlardagi o‘zgachalik davom etaveradi. Qodiriy badiiy ifoda borasida obrazli kulgi yo‘lidan, g‘oyaviy mazmun borasida esa tadrij yo‘lidan borish lozim deb biladi. G‘ozi Yunus esa badiiy ifoda borasida jiddiy tanqid yo‘lini tutish kerak, chunki jiddiy tanqidning foydasi ko‘proq deya hisoblaydi. Ayni 20-yillarda shu haqda maqola yozgan Abdulla Qahhorning fikrlari Qodiriy qarashlariga ancha yaqin keladi: “Satiramizning hozirgi ijtimoiy mohiyati shundaki, — deb yozadi A. Qahhor, — u hayotimizdagi barcha manfiy hodisalarni ochadi, mehnatkashlar ommasiga zavq bag‘ishlaydi. Shuning uchun ham sho‘ro hajvchisi ikki narsani unutmaydi: biri, mehnatkashlar ommasini qiziqtiradigan mavzu, ikkinchisi, o‘z ijodini kulgidan mahrum qilmaslik” (9, 2).

Bu bahs-munozara bora-bora tortishuvga, janjalga aylanib ketadi. Nafaqat G'ozzi Yunus, balki Qodiriydek diyonatli adib ham juda qizishib ketadi. Ular ta'na-malomatga, bir-birini haqoratlash darajasiga borib yetadilar. Bu holatni M. Qarshiboev juda yaxshi izohlagan: "Bahs ishtirokchilari goh fikrlar mantiqiga bo'ysinib, bosiq va vazmin mushohada yuritganlarida ham, goho tuyg'ular domiga tushib, qizishib ketganlarida ham ularning har biriga xos eski mavqe, ijtimoiy-siyosiy nazar, adabiy-badiiy saviya aniq sezilib turadi. Ular orasida esa o'sha davr ijtimoiy-siyosiy adabiy voqeligi bo'y ko'rsatib turgandek bo'ladi. Demak, ikkala adib ham 20-yillar voqeligini muayyan darajada o'zlarida aks ettiradilar. Ularning qarashlari jamiyat bag'ridagi ziddiyatli qarashlar va to'qinishlarning aksi sadosi bo'lib eshitiladi" (10, 24).

Abdulla Qodiriy estetikasidagi eng muhim qarashlardan biri hajviy asar mavzusi masalasiga bog'liq edi. "Komediya degan nima to'g'ri kelsa, shundan kula bermak emas, balki o'zining tub shartiga muvofiq etib kulmak, drama yozganda mavzuni turmushimizning naq chirik bir joyidan olmoq va uning ila barobar adabiyot tarozusiga solib yozmoq kerakdir" (11, 164). Demak, nafaqat, jiddiy asarning, balki hajviy asarning ham mavzusi muhim bo'lishi lozim, asarda ko'tarilgan muammolar jamiyatning og'riqli, "chirik" nuqtalarini o'zida aks ettirishi zarurdir. Hajviy asar yaratishdan maqsad ijtimoiy hayotdagi salbiy xususiyatga ega bo'lgan biror shaxs yoki hodisa borasida jamoatchilik fikrini uyg'otishdir. "Komediyaning moyasi hayot va hayot ideyasi o'rtasidagi ziddiyatlarni tasvirlashdan iborat. Uning elementi faqat masxaralash niyatida hamma narsani ochiq ko'ngil bilan mazax qiladigan beozor o'tkir zehnlardan iborat emas; aslo uning elementi zaharxanda yumor, hazilomuz jilmayish emas, balki darg'azab qahqaha, rasvolik va xudbinlikni epigrammalar bilan emas, balki nashtardek, istehzolar bilan ta'qib etishdan iborat shafqatsiz norozilikdir" (3, 116). Jamiyatdagi "chirik" nuqta bilan yozuvchi aslo chiqishmasligi lozim.

Ijodkor bilan muayyan ijtimoiy tuzum o'rtasida nomuvofiqlik, "shafqatsiz norozilik" vujudga kelgandagina hajviy asarning mavzusi ham ahamiyatli bo'ladi. Qodiriy sho'rolar tuzumidan, uning totalitar siyosatidan, va'dalar kattaligi-yu, ammo bajarilmasligidan qattiq norozi edi. Adib mavzuni turmushimizning "naq chirik" joyidan oladi, "jamiyatning qitig'iga tegadigan" gaplarni hajviy asarlariga mavzu qiladi. Toshpo'latning tilidan hikoya qilingan besh bolasini boqa olmayotgan, og'ir kunlarga qolgan Salim, uning biron marta qorni to'yib non yemagan bolalari, og'ir kasal bo'lishiga qaramay bola-chaqa boqish ilinjida yurgan mardikor kishi, uch kunlab och yurib oxirgi "boquvchisi" bo'lgan ketmonini ham sotgan Toshpo'lat, Sho'ro hukumatining kosib-hunarmandlarga katta-katta soliqlar solishi natijasida "singan" Matiqul, ishsizlik avjiga chiqqani tufayli mardikorbozorlarni to'ldirgan mardikor obrazlari hajviy asarga bekorga olib kirilmagan. Qodiriy shu obrazlar vositasida yo'qsillar hukumati, kambag'alparvar jamiyat deb butun dunyoga jar solinayotgan Davlatda ochlik, nochorlik hukm surayotganini, mustamlakachilik siyosati bosib-yanchgan bu jamiyat tom ma'noda kambag'allarni ko'paytiruvchi ulkan mashina ekanini masxara qiladi.

1925-yilda sho'ro hukumati shaxsiy mulk egalari kosib-hunarmandlarga katta-katta soliqlar soldi, ularning kasbini sindirdi, ular batraklik qilishga majbur bo'lib, davlatdan yer olib dehqonchilik tilini

bilmay, bu kasbda ham “kuydilar”, ishsizlik ko‘paydi, ya‘ni sanoat va qishloq xo‘jaligiga zarar yetkazildi. Qodiriy shunday jiddiy mavzularni hajviy asarlar ichiga “yedirib” yuboradi.

Inqilobdan so‘ng, ayniqsa, yigirmanchi yillarda “Sotsialistik tuzum rivojlanaverar ekan, uning sinfiy dushmanlari ham ko‘payaveradi” degan “nazariya” asosida o‘lkada sinfiy kurashlar har sohada kuchaytirildi. Ayni shu nazariya ijtimoiy kulgi obyektini va umumiy xarakterini o‘zgartirib yubordi. Tuzumning “dushmani” bo‘lgan boylar va dindorlar ayovsiz “fosh” etila boshlandi. Ya‘ni, jamiyatni sinflarga bo‘lish natijasida siyosiy kurashlarda hajviyotdan o‘tkir qurol sifatida foydalanildi. Va ma‘lum bir vaqt Qodiriydek iymoni butun alloma ham shu kurashlar ta‘siriga tushib qoldi hamda dinga, dindorlarga qarshi mavzularda bir qator asarlar yozdi. Prof. U. Normatov Qodiriyni ayni shu ruhdagi asarlarini quyidagicha izohlagan: “O‘sha kezlarda (1923-yil) mamlakatda “feodal o‘tmish”ga, “o‘tmish sarqitlariga”, jumladan, dinga, diniy aqidalarga, dindorlarga qarshi shafqatsiz kurash avj oldirib yuborilgan, ko‘plab ziyolilar, ijodkorlar mana shu kurashga safarbar etilgan edi, Qodiriydek e‘tiqodi butun alloma ham zamona zayli tufayli, ixtiyoriymi yoki shayton vasvasasi, shubha-gumonlar, ruhiy-ma‘naviy ikkilanish, izlanishlar oqibatidami, qandaydir sabablar bilan muayyan muddat shu jang-u jadallarda qatnashdi, din va diniy udumlarni yoppasiga qoralovchi, rad etuvchi asarlar yozadi, din va dindorlar xususida tarafkashlik bilan xiyla keskin bir yoqlama haqoratomuz tanqidiy gaplar aytadi” (5, 89). Lekin bu hol uzoq davom etmaydi. Adib keyingi yaratgan asarlarida o‘z xatosini to‘g‘rilab, o‘z e‘tiqodida sodiq qoladi. Fikrimizning dalili sifatida quyidagilarni eslash mumkin. Qodiriy “Kalvak mahzumning xotira daftaridan” asarida tilga olgan eng yirik mavzulardan biri vijdon erkinligi masalasidir. Har bir xalqning o‘ziga xosligi nimalarda ko‘rinadi? U faqat o‘ziga xos fikrlash tarzi va narsalarga munosabatida, dinida, tilida va ayniqsa, urf-odatlarida namoyon bo‘ladi. Diniy tushunchalar xalqning qiyofasidir, ularsiz xalq qiyofasiz obraz, behuda va amalga oshmaydigan xayoldir. Diniy tushunchalar, urf-odatlar muqaddas, daxlsizdir. “Din xalq uchun afyundir” shiori bilan chiqqan sho‘rolar hukumatida qog‘ozda diniy erkinlik bo‘lsa-da, amalda dinga qarshi qattiq kurash olib borildi. O‘zligini anglamagan, milliy qadriyatlarini ardoqlamagan yoki shunga majbur etilgan shaxslar Kalvak tilidan hikoya qilinadi. Musulmon farzandining ko‘chada kalima keltirishga ham qo‘rqishi, vafot etgan marhumga (hayotligida katta amaldor edi) yarim kechasi yashirincha janoza o‘qilib, kunduzi “mansabdor partinaylar tushub, munzakon bilan zakuska qilib ko‘mishlari”, “Mus‘hafi Usmoniy”ning temir sandiqda saqlanishi, kutubxonada bironta diniy kitobning yo‘qligi yigirmanchi yillardayoq xalq dindan, diniy urf-odatlardan uzoqlashtirilganining yaqqol dalilidir.

Shu o‘rinda yozuvchining boshiga ko‘plab g‘avg‘olar solgan “Yig‘indi gaplar” asari haqida bir oz so‘z yuritmoqchimiz. Maqolaning asosiy mavzusi jumhuriyatdagi maktablarning ahvoli, naqadar ayanchli vaziyatda ekanligidir. Maqola Sovetlar hukumati erishayotgan yutuqlarini butun dunyoga jar solayotgan bir davrda juda katta jasorat bilan yozilgan edi. Shunday davrda Qodiriy markaziy matbuotda butun xalqning uxlayotgani, respublikada sodir bo‘layotgan inqiroz bilan hech

kimning ishi yo'qligi, bu holatdan iste'lochilar ustalik bilan foydalanayotganlari haqida bong uradi. Maqola shunday boshlanadi: "Bu o'lkada nima ko'p ekan, uxlaydirgan burchak va unda o'mpayib uxlag'uvchi menga o'xshash ovsarlar! Men senga aytsam, o'zbekning ishchisi, dehqoni, maorifi, madaniyati, iqtisodi xullas, barchasi ham uxlaydir. Ammo o'choqboshini holi topqan olaqarg'alar bo'lsa, xo'pam bilgan noma'qulchiligini qilayapti! Qilaversin, egasiga tovoq, qoshiq kerak bo'lsa axir bir kun qatron-patron qilib olar-ov, og'ayni! Ishqilib o'lmasdan bahorga chiqib olsak bo'пти" (11, 2). Qodiriy bahordan (istiqboldan) umid qilyapti, mustamlakachilar — olaqarg'alardan axir bir kun qutildarmiz deya ishonch bildiriyapti. Afsus, bu kunlar kelishiga hali ancha bor edi! Qodiriy orzu bilan cheklanmaydi, u ochiqdan-ochiq maorifning ayanchli ahvoli uchun respublika rahbarlariga ta'na toshlarini otadi. Oxunboboyev maorif xodimlarining qurultoyida qilgan ma'ruzasida har 4909 odamga, ya'ni maktab yoshidagi bolalarning har 1000 tasiga bir maktab to'g'ri kelishini, bu maktablarning orasidagi masofa 200 chaqirim ekanligini aytgan edi. "Feletonlar qiroli" maktab o'quvchilari bu masofani yaxshi saman otga minganda (u davrda oddiy xalqda ot nima qilsin?!) bir yarim kunda bosib o'tishini "hisoblab" chiqadi. Har besh mingiga bitta maktab to'g'ri keladigan xalqning yoshlari kelajakda kim bo'ladi? Bu savolga Qodiriy "Yo otboqar, yo axlatqoqar, yo kallakesar", — deya javob beradi (11, 2).

Qodiriy ijodining kattagina qismini publitsistikaga oid asarlar tashkil qilgan bo'lib, sevimli yozuvchimiz feletonlarida, kichik satirik asarlarida ham o'z davrining yirik muammolarini hajviy tanqid orqali zamondoshlariga yetkazishga harakat qilar edi. U ijtimoiy-tanqidiy kulgi vositasida hayotdagi faktlar, voqea va hodisalarga o'z munosabatini bildiradi, kamchilik va nuqsonlarga xalqchilik, ma'rifatparvarlik, vatanparvarlik ideallari nuqtai nazaridan baho beradi. Bu feleton, hangoma, xitobnoma, bildirishlarning ko'pchiligi "Mushtum" jurnalida va davriy matbuotning turli nashrlarida chop etilgan bo'lib, ularning mavzusi g'oyat rang-barangdir: bu asarlar maktab-maorif muammolariga, davriy matbuotdagi nuqsonlarga, ahloqiy-tarbiyaviy masalalarga, dinga nisbatan yo'l qo'yilayotgan qo'pol xatolarga, milliylashtirish, yerlilashtirish, o'sha davr qurilishlaridagi ahvol kabi ko'plab mavzularga bag'ishlangan edi. Nega Qodiriy ijtimoiy-siyosiy hayotning shunday dolzarb muammolarini aynan hajviy publitsistikaning feleton va boshqa janrlarida qalamga oldi? Yozuvchining hajviy tanqidni qurol qilib tanlashining sababi, uning o'zi adabiy-tanqidiy maqolalarida ta'kidlaganidek, hajviyot, kulgi orqali xalqning ko'ngliga kirish, uning diqqatini tortish osonroq edi. Jiddiy tanqiddan ko'ra hajviy tanqid yaxshiroq natija berardi. Qodiriy satiraning demokratik xarakterini, xalqchil mohiyatini, uning predmeti va kulgi libosida bo'lishini, jamiyat taraqqiyotida o'ynaydigan ijtimoiy rolini juda teran tushunar va izohlagan edi: "Adabiyot dunyosida ikki xil tanqid bor: jiddiy tanqid va hajviy tanqid. Jiddiy tanqid o'zining kuzatgan nishonasi ustida o'zgarishlar yasasa ham, ammo ko'pincha avomga majhulroq bo'lib o'tadi. Jiddiy tanqid bahs qilingan masalaning o'z ahliga, ya'ni yuqori tabaqa ziyolilarga maxsus kabidir. Tanqidning ikkinchi xili bo'lgan hajviy (satira ma'nosi bilan) ommaviy deyilsa bo'ladi. Chunki kulgi tanqidi turmush bo'lib uchquvchi burgutdir. Hayot sharoitiga yaramagan

zaif, qizg'anch, manfur, muzir va shuning singari unsurlar unga yemdir. Hajviy tanqid avomning ruhiga yaqin va u his etgan, ammo ifoda qila olmagan masalalariga tarjimonidir. Xulosa: hajviy tanqidning tabiatidagi kulgilik unsuri avomning mahbubi, tag'in to'g'risi uning o'z ijodidir" (11, 184).

Muallifning hajvchilikka doir nazariy qarashlari bilan amaliy faoliyati uyg'unlikdadir. Qodiriy hajviyotiga oid estetik qarashlarini zamondosh yozuvchilar ham davom ettirishini orzu qilgan edi: "Men o'z tirikligimizdan kopia bo'lgan she'riy asarlarni, teatr-u asarlarini ko'payuvinigina emas, tamom harakat ila kutaman. Bu esa qo'lidan yozuv kelaturgan har bir kishidan emas: o'zining ahlidan kutaman. Turmushimizning asli usta rassom tomonidan olingan aksi bo'lsin deyman" (11, 165).

Xulosa

Yangi adabiyot yaratilayotgan yigirmanchi yillarda yetuk yozuvchilar, hajvchilar kam edi. Tabiiyki, jahon adabiyoti bilan yaxshi tanish bo'lgan Qodiriydek san'atkorni boshlovchi yosh yozuvchilarning asarlari qoniqtirmasdi, shu haqda u quyidagilarni yozadi: "Boqingiz muharrirlik g'ururi ila yozilgan dramalargakim, bunda birisining oldig'i mavzusi g'oyat ahamiyatsiz, turmushimizdan yiroq, ya'ni fantaziya shaklidagi bir narsa, ikkinchisining olgan mavzusi ahamiyatli, lekin voqeaning tasvirlanish yo'li so'ng darajada buzuq, asardagi qahramonning so'zi va ishi xarakteriga nomuvofiq" (11, 164). Adibning fikricha, asar yaratishda dastlab mavzuga ahamiyat berish lozim, shu bilan birga badiiy asar badiiylilik nuqtai nazaridan mukammal bo'lishi shart. Yigirmanchi yillarda yaratilgan ko'plab asarlarning eng katta kamchiligi ham ularda badiiylilikning yuksak darajada emasligidir. "Biz o'z sahnimizda shu choqqacha, o'zining sang'atkoronaligila ichiga kiritib yuborib, asirlantiraturg'on na bir drama va na bir komediya ko'ramiz. Qaysi bir yangi yozilgan dramaga qarama, buzuqlik, sahna uchun jinoyat" (11, 165).

Abdulla Qodiriy ta'kidlashicha, "Yozuvchilikda bir qonun bor: hammadan ilgari ma'no, undan so'ng shu ma'noni-fikrni ifoda qilish uchun so'z qurish, so'z emas — san'atkorona, ya'ni shundog' so'zki, aytmoqchi bo'lgan fikringizning ifodasi uchungina maxsus yaratilgan bo'lib, yasama bo'lmasin! Fikr kulgi pardasidami — bu, albatta, viveskaga qarab bo'ladir" (11, 165).

Abdulla Qodiriyning estetik qarashlariga ko'ra yozuvchi uslubining asosida jonli nutq ohanglari yotadi. Ohanglar tanqid obyektiga va yozuvchi talantiga bog'liq holda tug'iladi. Asar uslubi tilning turli vositalari orqali shakllanadi. Masalan, Kalvak mahzum va Toshpo'lat tajang kabi personajlar nutqidagi so'z boyligi ham, iboralar ham qahramonlar xarakterining yangi-yangi qirralarini ochishga xizmat qiladi. Yozuvchining satirik asar tili va uslubi haqidagi nazariy qarashlari juda muhim ahamiyatga egadir. "Mushtum" (tanqid) maqolasida yozuvchi shu masalaga alohida ahamiyat qaratadi: O'zgalarnikidek bizda ham ikki turlik til bor: xalq tili, matbuot yoki adabiyot tili, mana shu asos bir bo'lsa ham, lekin farqi katta bo'lgan ikki turlik tilni "Mushtum" aralash yuritadir. O'rtoq Oqpadar o'zining to'rt enlik maqolasida ham matbuot tilini, ham xalq tilini ishlatadir. Maqola bir, mavzu bir, ammo yozg'uvchi

bo'lsa-chi, ham Toshpo'lat tajang, ham Kalvak mahzum. Shu dag'allik barakasida "Mushtum" jonsiz va ruhsizdir" (11, 175). Adib satirik uslubida o'tkir so'zlik, zaharxanda, piching muhim rol o'ynaydi. Bu san'atkor hajviy kulgisini yuzaga keltiruvchi vositalardandir. "Kalvak mahzum xotira daftaridan", "Toshpo'lat tajang nima deydi?" asarlarida adibning o'tkir so'zligi xalq ijodiga oid, ayniqsa, askiya uslubiga xos, qisqa, lo'nda so'zlar, iboralar, jumlar bilan muddaoni ifodalashida ko'zga tashlanadi. Bu o'tkir so'zlik asosida faktlarni, hodisalarni, mulohazalarni qiyoslash, taqqoslash yotadi. Uslub til bilish bilan bog'liqdir. Har bir yaratilgan asar yozuvchining til haqidagi bilimlarining ko'zgusidir. O'z ustida qattiq ishlash, xalq tili va adabiy tilni yaxshi o'rganish natijasida yozishga malaka hosil qilinadi va natijada uslub ham o'z-o'zidan tug'iladi.

Abdulla Qodiriyning satira va yumor haqidagi barcha qarashlarini bir yerga jamlasak, unda o'zbek hajvchiligidan chuqur ildizlari, taraqqiyot bosqichlari kabi bir qator masalalarga oid javoblar topa olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdusamatov H. O'zbek satirasi masalalari. — Toshkent: G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1968. — 90 b.
2. Бахтин М.М. Творчество Франсуа Рабле и народная культура Средневековья и Ренессанса — Москва, 1990. — 543 с.
3. Belinskiy V. Adabiy orzular. — T., 1977. — 263 b.
4. G'ulom G'. Kulguchilik to'g'risida ("Mushtum"ning Farg'onaga sayohati munosabati bilan)// Qizil O'zbekiston, 1928 yil, 27-son. — URL: <https://ziyouz.uz/matbuot/sovet-matbuoti/gafur-gulom-kulgichilik-tog'risida-1928/?lng=lat>
5. Normatov U. Qodiriy bog'i. — T., 1995. — 64 b.
6. Oybek. Abdulla Qodiriyning ijodiy yo'li. — T.: 1936. — 132 b.
7. Cho'lpon. Adabiyot nadur? — URL: <https://chulpon.uz/adabiyot-nadir/>
8. Xurshid Do'stmuhammad. Ozod iztirob quvonchlari. — Toshkent: Ma'naviyat, 2000. — 112 b. — URL: <https://n.ziyouz.com/books/publitsistika/Xurshid%20Do'stmuhammad.%20Ozod%20iztirob%20quvonchlari.pdf>
9. Qahhor A. Kulgichilik bahslari. // Qizil O'zbekiston, 1929-yil, 5-aprel.
10. Qarshiboev M. Bir bahs saboqlari. // Abdulla Qodiriyning badiiy dunyosi. — T., 1994. — 218-b.
11. Qodiriy A. Kichik asarlar. — T.: G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. 1969. — 213 b.
12. Qodiriy A. O'tkan kunlar. Mehrobdan chayon. — T.: G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1994. — 640 b.
13. Qo'shjonov M. Abdulla Qahhor mahorati: Monografiya. — T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988. — 232b. — URL: <https://n.ziyouz.com/books/adabiyotshunoslik/Matyoqub%20Qo'shjonov.%20Abdulla%20Qahhor%20mahorati.pdf>

References

1. Abdusamatov Kh. *Uzbek satirasi masalalari* (Uzbek satire issues), Toshkent: G. Gulom nomidagi adabiet va sanat nashrieti, 1968, 90 p.
2. Bakhtin M.M. *Tvorchestvo Fransua Rable i narodnaya kultura srednevekovya i Renessansa* (The work of Francois Rabelais and the folk culture of the Middle Ages and Renaissance), Moscow, 1990, 543 p.
3. Belinskii V. *Adabii orzular* (Literary dreams), Tashkent, 1977, 250 p.
4. Gulom G. *Kulguchilik tugrisida ("Mushtum"ning Fargonaga saekhati munosabati bilan)* (On laughter (on the occasion of the journey of the "fist" to Fergana)). Kizil Uzbekiston, 1928, No 27, available at: <https://ziyouz.uz/matbuot/sovet-matbuoti/gafur-gulom-kulgichilik-togrisida-1928/?lng=lat>
5. Normatov U. *Kodirii bogi* (Kadiri's Park), Tashkent, 1995, 64 p.
6. Oibek. *Abdulla Kodiriining izhodii yuli* (The creative path of Abdullah Qadiri), Tashkent: 1936, 132 p.
7. Chulpon. *Adabiet nadur?* (What is literature?), available at: <https://chulpon.uz/adabiyot-nadir/>
8. Khurshid Dustmukhammad. *Ozod iztirob kuvonchlari* (The joys of free suffering), Tashkent: Ma'naviyat. 2000, 112 p. Available at: <https://n.ziyouz.com/books/publitsistika/Xurshid%20Do'stmuhammad.%20Ozod%20iztirob%20quvonchlari.pdf>
9. Qaxxor A. *Kizil Uzbekiston*, 1929-ii, 5-aprel.
10. Qarshiboev M. *Bir bahs saboklari: Abdulla Qodiriining badiii dunesi* (Lessons from a debate. // The artistic world of Abdulla Qadiri), Tashkent, 1994, 218 p.
11. Qodirii A. *Kichik asarlar* (Minor works), Tashkent: Gafur Gulom nomidagi badiii adabiet nashrieti, 1969, 213 p.
12. Qodirii A. *Utkan kunlar. Mekhrobdan chaen* (Past days. A scorpion from the altar), Tashkent: Gafur Gulom nomidagi badiii adabiet nashrieti, 1994, 640 p.
13. Kushzhonov M. *Abdulla Kahhor makhorati: Monografiya* (Abdullah Qahhor skill: monograph), Tashkent: Adabiet va san'at nashrieti, 1988, 232 p., available at: <https://n.ziyouz.com/books/adabiyotshunoslik/Matyqub%20Qo'shjonov,%20Abdulla%20Qahhor%20mahorati.pdf>